FARG’ONA VILOYATI FARG’ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 21 - yanvar 17-11-163-Q/22 Farg‘ona tumani hokimligi

Farg‘ona tumanining qishloq aholi punktlari hamda ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrdagi “Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to‘g‘risida”gi PF–2791-sonli Farmoni 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish qoidalari”ning 118-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 1-ilovaga muvofiq, qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari e’lon qilinadigan rasmiy manbalarda (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy nashrlari) rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O‘.Teshajonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Sh.Muminov**

Фарғона туман ҳокимининг
2022 йил 21 январдаги
17-11-163-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

TARIFLARI

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	QFY soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/ tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Do‘stlik MFY	34	1	995	8457	8
2.	Dilkusho MFY	8	1			
3.	Beruniy MFY	12	1			
	Jami		**3**			

Фарғона туман ҳокимининг
2022 йил 21 январдаги
17-11-163-Q/22-сон қарорига
2-илова

Tumanning qishloq hududidagi ijtimoiy soha ob’ektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

TARIFLARI

QQSsiz

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	Ijtimoiy muassasa soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Do‘stlik MFY	34	1	995	8457	8
2.	Dilkusho MFY	8	1			
3.	Beruniy MFY	12	2			
	Jami		**4**			